

МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/1-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуәлық берилген.*

Нөкис

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ АДЕБИЯТ

Nusratova H. Ch. Ilmiy-omtabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari	6
Rustamova Z. Dialektal korpus korpus lingvistikasining o'rganish ob'ekti sifatida	16
Bakiyeva H. S. Ona tili ta'limida o'quvchilarning matn ustida ishlash va matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish	21
Рамазанова Р. А. Технология критического мышления на уроках русского языка и литературы	27

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Ibadullayev Q. M. O'rta talimga innovatsiyalarni joriy etishning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati	34
Xolmatova S. K. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar organizmining funksional holatini baholash uslubi	38
Narimbaeva L. K. Talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini pivojlantirishning muhim xususiyatlari va komponentlari	44
Rustamov L. X. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish jihatlari	51
Tursaotov A. E. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari	55
Mirzakarimova M. M. O'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda clil texnologiyalari	60
Jumanova F. U. Dars- ta'limni tashkil etishning asosiy shakli	64
Обидов А. Э., Джураев А. С. “Адаптив таълим” ходисаси ва унинг ўзига хослиги	69
Бозорова М. Қ. Ўқувчи-ёшларнинг миллий-маънавий тарбияси ривожланишида этнопедагогик ғоялардан фойдаланиш	82
Yarashev A. N. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta'limoti	86
Otamurodova Sh.Q. Diversifikatsiya tamoyilining talabalar kreativ potensialini yuzaga chiqarishdagi o'rni	92
Mamanazarova N. K. Xalq ta'limi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini tashkil etish mexanizmi	100
Egamberdiyeva M. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy rivojlanish kompetentsiyasini shakllantirish usullari	107
Шерматов Б. Б. Педагогические условия реализации модели социально-профессиональной адаптации курсантов	112
Нигманов Б. Б. Формирование здоровьесберегающей модели поведения студентов в период дистанционного обучения	117
Мухамеджанов Ш. М. Педагогические основы формирования ценностного отношения школьников к здоровому образу жизни	122
Нурманова Н. Қ. Применение интегративного модульного обучения как метода повышения качества образования	129

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХАМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Алтинов И. И. Ўзбекистонлик тиббиёт ходимларининг иккинчи жаҳон уруши йилларида кўрсатган жасорати (Қорақалпоғистон фарзанди, ҳарбий врач, захирадаги подполковник, профессор, Заиров Қаям Сабинович хакида)	135
Давлетбоев Д. Е. Қорақалпоқ халқининг лочини	141



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Asanova U. S. Tálimde xabar texnologiyalar páninde talabalardıń óz betinshe jumslarin shólkemlestirivdiń ózine tán ózgeshelikleri	148
Isaqov J. A. Grafik ta'lim samaradorligini oshirishda yagona grafikaviy tartibning ta'limiy imkoniyatlari	152
Isaqov J. A. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan o'quv fanlarida qo'llaniladigan grafik tasvir turlari	157
Polotov K. K. To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarligi va ikki tekislikning o'zaro perpendikulyarligi	162
Тургунбаев Р. М., Алламбергенов И. Х., Аллаберганов Б. И. Бўлғуси математика ўқитувчиларининг назарий тафаккурини шаллантиришда ўқув тезаурусидан фойдаланиш	167
Azatova S. N. Tenglamalarni yechishga o'rgatishda o'quvchilarda tartibga solish universal o'quv harakatlarini shakllantirish haqida	173

БАСЛАЎҲИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӨРБИЯ

Shanasirova Z. Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish yo'llari	179
Xurvaliyeva T. L. Maktabgacha ta'limda art-texnologiyalardan foydalanish	185
Abdullayev A. A. Tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmlari	189
Teshabayeva Z. S. Bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlarning ro'li	194
Nosirova R. X. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, maktab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari	198
Xidoyatova N. A. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi	204
Karimjonova D. A. Maktabgacha ta'lim muassasalarda tarbiyalanuvchilarni ijodkorligini rivojlantirishning interaktiv metodlari	208
Tursunboyeva M. D. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ilm fan va tabiat" markazida bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari	213
Abdijaborova S. Q. Milliy harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash	218
Soatov E. M. Harakatli o'yinlar klasteri sharoitida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jihatlari	222
Abdijaborova S. Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali shakllantirish muammolari	227
Ismanova M. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari	231
Atabekov F. O. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi	237
Buriyeva A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ilk qadam davlat dasturi" asosida o'yinlar orqali bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish	241
Pesova L. A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachining tutgan o'rni	244
Abduraximov D. D. Bolalarning muvozanat qobiliyatini shakllantirishda maxsus jismoniy mashqlar komplekslaridan foydalanish	248
Azamatova D. Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini tashkil etishda steam texnologiyasini qo'llashning ahamiyati	252
Xodjaxonova K. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammolari	257
Pesova L. A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish	261
Abdullayeva L. U. Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish	267



TABAQALASHTIRISH ASOSIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Abdullayev A. A.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Bolalar sporti kafedrası
mudiri dots., p.f.f.d. (PhD)*

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, boshlang'ich sinf, tabaqalashtirish, pedagogika, psixologiya, individual, harakat, me'yorlash.

Ключевые слова: физическое воспитание, начальная школа, дифференциация, педагогика, психология, индивидуализм, действие, нормализация.

Key words: physical education, elementary school, differentiation, pedagogy, psychology, individualism, action, normalization.

Ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim asosiy bo'g'in sifatida muhim o'rin tutadi. Bu boshlang'ich ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya, sport sog'lomlashtirish ishlarini rivojlantirish, ta'lim olayotgan o'quvchilarning jismoniy tarbiyaga qiziqishini oshirish, bilimi, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash davr talabiga aylanib bormoqda.

Ta'limda tabaqali yondashish kichik yoshdagi bolalarni birlashtiradigan boshlang'ich maktablarning darslarida, 1-4 sinflarda har xil guruhdagi o'quvchilar bilan ishlashda juda katta ahamiyatga ega. Bir omilni amalga oshirishda bir xil yoshdagi maktab o'quvchilarini guruhlarga ajratish talab qilinadi. Tabaqali yondashish uslubini amalga oshirish jismoniy sifatlarni tarbiyalashga yordamlashadi, o'quv jaryoni samaradorligini oshirishga zamin yaratadi va jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga o'quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda o'quvchilarning jismoniy holatini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda tabaqali yondashish muammosi asosan, maktab o'quvchilari bilan ishlashga tegishli materiallardan iboratligi ko'rsatadi [3]. Tabaqali yondashish jismoniy tarbiyada faqat ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan tashqari, o'quvchilarni faollashtirish usuli hamdir. Shu sababli, u o'z vazifasini bajarishi, ya'ni o'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlashi, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshiruvchi harakat omili bo'lib qolishi uchun muntazam ravishda qo'llanilishi, yetarli, mukammal va ixcham bo'lishi kerak.



Jismoniy mashqlarni bajarayotgan o'quvchilar organizmining o'sishi va rivojlanishiga, ularning individual jismoniy rivojlanish sur'ati va yo'nalishiga to'g'ri tanlangandagina rag'batlantiriladi, bunday bolalar boshqalarga nisbatan mashqlarni tanlash, ularni me'yorlashda shu sababli o'quvchilarga ko'proq e'tibor berishni talab qilishadi.

Olimlar va mutaxassislarning ko'rsatishicha, har xil hududlarda joylashgan shahar va qishloq o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bir xil emasligi aniqlangan[1].

Bolalar uchun jismoniy tarbiyaga bog'liq chora-tadbirlarni ishlab chiqish, mashg'ulotlar tashkil qilish va o'tkazishda ularning jinsiy farqini qat'iy hisobga olish kerak. Bu esa jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan mashqlarni me'yorlashda juda muhimdir.

Chex tadqiqotchisi Ray Xkoyta kichik maktab yoshidagi bir guruh bolalarni kuzatgan. Jismoniy yuklama xajmi hamma uchun bir xil edi, lekin 5 yildan keyin tekshirilganda, guruhlarda kuchli bolalar kuchli, kuchsizlari kuchsizligicha qolgani ma'lum bo'ldi. Bunday paytda o'quvchilarga tabaqali yondashishda mashq yuklamalarini me'yorlash zaruriyati tug'iladi. Har bir o'quvchining o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mo'ljali, jismoniy tarbiyada tabaqali yondashish muammosini oldinga suradi.

Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarga tabaqali yondashish masalalari ko'pincha mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Lekin hozirgi kungacha jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarga tabaqali yondashish uslubidan amaliyotda yetarlicha foydalanilyapti deb bo'lmaydi. O'quvchilarga tabaqali yondashishni to'g'ri tartibga solish shartlaridan biri tabaqali yondashish ayniqsa sog'lig'i, jismoniy tayyorgarligi bo'sh tibbiy guruhga kiritilgan, kasalligi bo'yicha darslarni qoldiradigan o'quvchilar uchun eng zarurdir.

O'quvchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashda tabaqali yondashgan vaqtda biz ularning rivojlanishi, harakat qobiliyatlarining har-xilligini etiborga olishimiz mashqlarning tuzilish mazmuni va shakllarini ham hisobga olgan holda qo'llashimiz zarur. Tabaqali yondashish harakat qobiliyatlarining rivojlanishi va pasayishini tubdan o'zgartiradi (bir rivojlanish darajasidan boshqasiga o'tganda). Ko'pincha bir xil jismoniy sifatlarning rivojlanishi boshqa sifatlarning rivojlanish sur'atini pasaytirish bilan bog'liq bo'ladi. Tabaqali yondashish jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar harakatini maxsusligiga qarab guruhlarga ajratish, toifa mezonlariga erishish ehtimolini oldinga suradi. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarini, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni to'g'ri tashkil qilish maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanishida yaxshi siljishlarga olib keladi, ularning o'zlashtirishi va intizomini yaxshilaydi.



Hozirgi vaqtda madaniy va jismoniy tarbiya ishlarini tashkil qilishda tabaqali yondashishning zarurligini isbotlashga extiyoj yo‘q. Tabaqali yondashish tarbiyaviy ishlarda talab darajasida bo‘lishi hamda o‘quvchilarni o‘zlashtira olmayotgan harakat ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Shunga qaramay, xali ham tabaqali yondashishni amalga oshirish jiddiy to‘siqlarga va qarama-qarshiliklarga uchramoqda. Tabaqali yondashish hamda aniq tasavvur xosil qilish uning muhim xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini ko‘rsatib berish kerak.

Jismoniy tarbiya darslarida ta‘lim va tarbiyani tashkil qilishni mukammallashtirish bilan bog‘liq masalalarni ilmiy ravishda ishlab chiqish, tabaqali yondashish asosida har bir guruhda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish nihoyatda dolzarb vazifadir.

Ilmiy va uslubiy ishlari shuni ko‘rsatadiki, shug‘ullanuvchilarga tabaqali yondashishning muhimligiga qaramasdan, ko‘pchilik hollarda bu ishga bir tomonlama yondashiladi[2]. Ilmiy tadqiqot natijalari, pedagogik amaliyotning ilg‘or tajribalariga tayanib aytish mumkin: bolalarning sport tayyorgarligi faqat yoshlik davridagi rivojlanishiga qarab emas, balki individual farqlari, ya‘ni tabaqali yondashish ko‘rsatayotgan shaxsiy pedagogik ta‘siriga asoslanishi kerak. Shu bilan birga, maktab o‘quvchilari tipologik xususiyatlarining jismoniy sifatlar o‘rishiga ko‘rsatilgan kontingent uchun berilgan yuklamani hisobga olgan holda jismoniy tarbiyada tabaqalangan uslubiyot hali ishlab chiqilmagan. Jismoniy tarbiya darslarida ta‘lim va tarbiya jarayonini optimallashtirishning muhim sharti bo‘lgan tabaqali yondashish jismoniy tarbiya dars sifatini yaxshilash yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Tabaqali va individual yondashish xarakteri shundan iboratki, o‘quvchining o‘zlashtirishini aniqlagan holda pedagog uning shaxsini, mijozini, xarakterini, psixologik va jismoniy qobiliyatlarini, gavda tuzilishini, salomatlik holatini hisobga oladi. Baholashda tabaqali yondashish bilim va ko‘nikmalarni egallash bosqichlarida turlicha talablarga javob berishini talab qiladi. Harakatlarni o‘rganish bosqichida ko‘nikmalarning mustahkamlanib borishiga qarab oddiy mashqlar tobora murakkablashtirilib boriladi.

Mashg‘ulotlarda o‘quvchilar organizmini rivojlantirish uchun foydalaniladigan jismoniy yuklamalarni me‘yorlashda ham tabaqali yondashishni hisobga olish kerak. Buni ko‘pgina xorijiy va mahalliy mualliflar o‘z ilmiy tadqiqotlarida tasdiqlashgan. Jismoniy tarbiya darslarida har xil yurak-tomir kasalliklari xavfining oldini olishda jismoniy yuklamalarning o‘lchab berishga tabaqali yondashish sog‘lomlashtirish samarasini oshiradi. Maktab



yoshidagi bolalarni harakatlarga o'rgatish va shu tariqa harakat qobiliyatlarini tarbiyalashda tabaqali yondashishga amal qilish juda muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarni tipologik guruhlariga bo'lish dinamik xarakterga ega. O'quvchilarning harakat qobiliyatlarini yaxshilash davomida tipologik guruh azolari o'zgaradi. Harakat qobiliyatlari nisbatan sust bo'lgan o'quvchilar maqsadga yo'naltirilgan ish davomida harakat qobiliyatlari yuqori darajadagi guruhga o'tkaziladi.

Bundan tashqari, jismoniy tarbiya darslarida ko'zlangan maqsadga va har bir darsda qo'yilgan vazifaga ko'ra tipologik guruh tarkibi o'zgarishi mumkin. Bu qoidalar maktab o'quvchilariga tabaqali yondashishning shartlaridan biridir. Tabaqali yondashishni amalga oshirish uchun birinchi navbatda harakat xususiyatlarining shaxsiy (individual) ko'rsatkichlari, mushaklarning ish qobiliyatlari va maktab o'quvchilarining psixologik, pedagogik va klinik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilarga tabaqali yondashish maxsus mashg'ulotlar va uy sharoitida shaxsiy (individual) topshiriqlarni bajarganda amalga oshiriladi. Shuningdek, bir xil yoshdagi va bir xil jismoniy rivojlanishga ega bo'lgan bolalarda harakat sifatlarining rivojlanishi ham bir xil emasligiga e'tibor qaratish lozim. Shuning uchun ba'zi bir orqada qolgan o'quvchilarning harakat sifatlarini rivojlantirish uchun shaxsiy (individual) dasturlar tuzish, ular bo'yicha mashqlar majmuasini ishlab chiqish jismoniy tarbiya darslarida sinfning har bir o'quvchisiga mashqlarni tabaqali yondashib o'rgatishni tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabaqalashtirish, ushbu tabaqalashtirish doirasida sinf o'quvchilari u yoki bu mezonlar bo'yicha bir nechta guruhga bo'lish jismoniy tarbiya ta'limi bo'yicha o'quv jarayonini tabaqalashtirishda quyidagi me'zonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- a) jismoniy tayyorgarlik;
- b) harakatli amallarning shakllantirish.

Ushbu mezonlarga mos holda jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida o'quvchilar quyidagi 2-3 guruhga bo'lish lozim:

- yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar;
- o'rtacha jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar;
- quyi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar.

Harakatli amallarni o'rgatishda o'quv materialining mazmuni hamma guruhdagi o'quvchilar uchun bir xillikda qoldirish. Ta'limning vositalari, shakllari va uslublarini tabaqalashtirish.



Xulosa tariqasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini aniqlab, ularga tabaqali yondashishga hamda individual qobiliyatiga qarab guruhlariga ajratib, me'yorlangan yuklama berishni maqsad muvofiq hisoblanadi.

Адабиётлар:

1. Бадаева З.Х. Методика занятий с девочками на уроках физической культуры в 5-7 классах сельских школ Узбекистана. Автореф. дис..., канд.пед.наук. , Т., 1994. 14-22 с.
2. Запорожанов А.В. «Индивидуализация специальной физической подготовки с учетом особенностей развития физических качеств спортсменов в современном пятиборье». Авт. дисс...к.п.н. - Минск – 1989 г. 24 с.
3. Фомин Н. А., Филин В. П. Возрастные основы физического воспитания. М., ФиС 1972. 174 с

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада мактабда бошланғич синф ўқувчиларини табақали ёндашиш асосида ташкил этиш, унинг педагогик-психологик ҳамда физиологик томонлари борасида фикрлар баён этилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются педагогические, психологические и физиологические аспекты организации учащихся начальной школы через целостный подход.

SUMMARY

In the state of painting, psychology, and physiological aspects of the organization of the three-dimensional scale of the work.





Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

«МУҒАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

№ 1/1

Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшесі №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,

mugallim-pednauk@umail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Муғаллим хам үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шарт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлыұматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 18.01.2023. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 52,5 . Нашр. т. Нұсқасы _____ Буйырtpa №